

dekabrda ITB Direktorlar Kengashi tomonidan ma'qullanganligi hamda moliyalashtirish maqsadida 2023-yil 26-aprelda 5 yillik imtiyozli davrni o'z ichiga oluvchi 20 yil muddatga 260 million AQSh dollari miqdorida Hadli kelishuv va Agentlik kelishuvi imzolandi;

-Ushbu loyihaning umumiyligi 293,5 million AQSh dollariga teng bo'lib, shundan O'zbekistonning ulushi 33,5 million AQSh dollarini tashkil etishi;

-Loyiha Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarining 21 ta tumanidagi 157 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida amalga oshirilib, ushbu loyihani amalga oshirish davri 5 yilni ya'ni 2024-yildan 2028-yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirilishi belgilandi.

Xulosa sifatida quyidagilarni keltirish mumkinki, hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida investitsiyalarini jalb qilish juda muhim. O'zbekistonda islomiy investitsiyalarga nafaqat davlat loyihalariga shu bilan birgalikda, biznes sektori va aholi tomonidan ham katta talab mavjud. Shunday ekan, muslimon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag'larini O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash maqsadida jalb etish ayni muddaodir. Buning uchun esa, albatta, milliy bank tizimiga yangicha yondashuv bilan nazar solmoq lozim, ya'ni an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi tadqiq etilishi muhim va dolzarb hisoblanadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati**

1. <https://www.google.com/search>
2. United States Department of State, '2021 Report on International Religious Freedom: Uzbekistan' (US Department of State, 2 June 2022), <https://www.state.gov/reports/2021-report-on-international-religious-freedom/Uzbekistan> accessed 31 March 2023.
3. J.Imamnazarov.; Landscaping analysis of Islamic finance instruments in Uzbekistan.; analytical paper.
4. Lex.uz ma'lumotlari bazasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

## **O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA ISLOM MOLIYASINING AHAMIYATI VA DAVLATIMIZDA ISLOM MOLIYASINING INKLIZIVLIK DARAJASI**

**Ilyosov Asrorjon**

*Farg'ona politexnika instituti, i.f.f.d. (PhD), dotsent.*

**Mahammadova Noilaxon**

*Farg'ona politexnika instituti, 63-24 Iqtisodiyot guruhi talabasi.*

Bugungi kunda shuni bilishimiz mumkinki O'zbekistonda islom moliyasiga qiziqish ortib bormoqda chunki O'zbekiston aholisining qariyb 93 % foiz qismini muslimonlar tashkil etadi. O'zbekiston avvaldan islom dinining markazlaridan biri bo'lgani hammamizga ayon, lekin shunday bo'lishiga qaramasdan bizning

davlatimizda Islom moliyasi yaxshi rivojlanmagan. Avval Islom moliyasi haqida ozgina gapirib o'tadigan bo'lsak, islam moliyasi – bu pulni sarflash va taqsimlashda Islom qoidalariga rioya qiladigan tizim hisoblanadi. Bu tizimda qarz berib foyda olish taqiqlangan bo'lib, barcha moliyaviy operatsiyalar real iqtisodiy faoliyatga asoslanishi kerak. Shuningdek, O'zbekistonda Islom moliyasining inklyuzivligi hali to'liq shakllanmagan, lekin hozirgi iqtisodiy holatga qaraganimizda Islom moliyasi rivojlanish bosqichida turibdi. Ayrim banklar foizsiz moliyaviy xizmatlarni taklif qila boshladi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Bunday bo'lishiga qaramasdan, Islom moliyasidan foydalanish imkoniyati hali ham cheklangan. Maxsus qonunlar va tartiblar to'liq ishlab chiqilmagan, moliyaviy xizmatlar esa cheklangan miqdorda taqdim etilmoqda. Kelajakda Islom moliyasini yanada inklyuziv bo'lishi uchun qonunchilikni takomillashtirish, moliyaviy xizmatlar turlarini kengaytirish va aholining bu boradagi bilimini oshirish muhim. Bu esa ko'proq insonlarning iqtisodiy imkoniyatlardan teng foydalanishini ta'minlaydi.

Gardus nashrining ma'lumotlariga ko'ra islom moliyasi sektori yiliga 15(%) foizdan 25(%) foizgacha oshib bormoqda. Islom moliya institutlari esa butun jahon bo'yicha umumiyligi 2,7 trillion dollardan ortiq aktivlarni nazoratga olgan.

O'zbekistonda islom moliyasining ahamiyatini oshirish va rivojlantirish maqsadida bir qancha islohotlar olib borilmoqda. Shuningdek, 2024-yil so'nggidagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Markaziy banki Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashiga a'zo bo'lgan. Tadbirkorlar orasida o'tkazilgan so'rovnama natijalariga ko'ra, tadbirkorlarning 38 (%) foizi islom moliyasi asosida ish yuritish istagida ekanligi ma'lum bo'ldi. Yana bir ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda islom moliyasi joriy etilishi natijasida, O'zbekistonga 10 milliard dollarlik investitsiya kirishi va 100 mingdan ortiq bo'sh ish o'rnlari yaratilishi mumkinligi haqida aytib o'tilgan. O'zbekistonda "Islom moliyasi to'g'risidagi qonun loyihasi" ham ishlab chiqildi va davlat qonunchiligidagi ham bir qancha tuzilmalar ishlab chiqilmoqda. Masalan:

1. Yangi bank qonuni joriy etish va ularning faoliyatini litsenziyalash.
2. Islom moliyasi institularni yaratish va bu bo'yicha mutaxassis kadrlar yetishmovchiliginibar taraf etish.
3. Islom moliyasi va banklarini jamiyatga tushunarli qilib yetkazish va ularni ishonchlilagini ta'minlash.
4. Investitsiyalar kiritish kabilar bo'yicha islohotlar olib borilmoqda.

Yangi bank qonunini joriy etish, bu orqali islomiylar tamoyillariga mos keladigan qonun-qoidalar va tartiblarni joriy etish maqsad qilingan. Islom moliyasi institutlarini tashkil etish bu orqali esa manashu sohaga kerak bo'ladigan mutaxassislarni ko'paytirish va bu orqali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga erishish nazarda utilgan. Islom moliyasi va banklarini jamiyatga tuhunarli qilib yetkazish ya'ni, aholi va tadbirkorlarning islom moliyasi haqida malumotlarga ega emasligi ularni ishonchsizlikka olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda islam moliyasiga qiziqish kundan-kunga oshib bormoqda va yuqorida ko'rib o'tganimizdek islam moliyasini rivojlantirish uchun bir qator islohotlar ham amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar hozirda O'zbekistonda islam moliyasini rivojlantirish uchun yetarli emas, chunki an'anaviy iqtisodiyotimizni o'zida ham bir qancha chalkashliklar mavjud va bu muammolar o'z yechimini topgani yo'q. Shuning uchun aytishimiz mumkinki, agar islam moliyasini rivojlantirmoqchi bo'lsak avval an'anaviy iqtisodiyotimizni yaxshi yo'lga qo'yib olishimiz kerak. Masalan, an'anaviy iqtisodiyot va islam moliyasini rivojlantirish uchun bir qancha taklif va tavsiyalarni aytib o'tsak bo'лади:

1. Qonunchilikni isloh qilish va byurokratik to'siqlarni kamaytirish.
2. Kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish va xalqaro tajribadan foydalanish.
3. Hududiy rivojlanishga e'tibor berish va qishloq joylarda ham moliyaviy xizmatlarni kengaytirish.
4. Yangi innovatsion moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqish va raqamli texnologiyalardan foydalanish.
5. Aholi, tadbirkorlar va yoshlar orasida islam moliyasini ommalashtirish va tushuntirish.

Biz bular orqali aholi, tadbirkorlar va davlat o'rtasida ishonchli aloqani o'rnatishimiz va islam moliyasi va banklari faoliyatini rivojlantirishimiz mumkin. Shuningdek, avvalroq aytib o'tilgan olib borilayotgan islohotlar, ya'ni, investitsiyalarni jalb qilish, bo'sh ish o'rinnari yaratish, mutaxassis kadrlar tayyorlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilashni ham bir necha bosqich asosida yuritilsa O'zbekiston yaqin muddat ichida islam moliyasi bozorida yetakchi davlatlardan biriga aylanishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Islom bank ishi va moliyasi – Vikipediya [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Islom\_bank\_ishi\_va\_moliyasi]
2. Islom moliyasi haqida nimalarni bilamiz? – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz [https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/17/islamic-finance/].
3. Kurpayanidi, K., Ilyosov, A. (2021) Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va yechimlar// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2021 yil. 309-315 b.
4. Ilyosov, A. A. (2023). Some issues of evaluating the social responsibility of business activity. *Publishing House "Baltija Publishing"*.
5. Islomiy moliya Haqida Yangiliklar; 44 ta Xabar - 2025-02-24 23:29 - Daryo Xabarlari Ichidan Qidiruv Natijasi | DARYO Qidiruv [https://daryo.uz/search?q=islomiy+moliya&type=news&date=2025-02-24+23%3A29&utm=from\_article\_bottom\_hashtags]
6. Islom moliyasi to'g'risidagi qonun loyihasi [https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/20/islam-banking/]